Qabul qilindi: 27-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 29-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 5-oktyabr 2026-yil

QISHLOQ XO‘JALIGIDA AGROSUG‘URTA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA FERMER XO‘JALIKLARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Umaraliyev Diyorbek Shukirali o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Tezisda 2025–2026-yillarda qabul qilingan O‘RQ-1056, PF-223 va PQ-354 hujjatlari asosida O‘zbekistonda agrosug‘urtaning hozirgi holati ko‘rib chiqilgan. Sug‘urta mukofotini subsidiyalash tartibidagi cheklov, qoplama turlari va tizimli xavflar muammo sifatida ajratilgan. Shuningdek, fermer xo‘jaligi daromadining barqarorligini o‘lchash uchun koeffitsient hamda uch bosqichli agrosug‘urta modeli taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: agrosug‘urta, sug‘urta mukofotini subsidiyalash, indeksli sug‘urta, fermer xo‘jaligi, iqtisodiy barqarorlik, Qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi jamg‘armasi.

KIRISH. Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biridir. Shuningdek, u yalpi ichki mahsulotning 24,3 foizini beradi, mehnat bozoridagi bandlikning esa 26 foizini ta’minlaydi [5]. Bunday xo‘jaliklarning moliyaviy zaxirasi kichik, shuning uchun sovuq, qurg‘oqchilik, do‘l yoki zararkunanda kabi xavflar ularga og‘ir tushadi. Sug‘urta fermer daromadining keskin tebranishini yumshatadi, kredit olishni osonlashtiradi va davlat yordamining samarasini oshiradi. So‘nggi ikki yilda sohaning huquqiy asosi butunlay yangilanganligini ko’rishimizmumkin. Ya’ni, 2025-yil 15-aprelda O‘RQ-1056-son «Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi, shu yilning 21-noyabrida PF-223-son Farmon, 2026-yil 28-sentabrda esa PQ-354-son qaror chiqdi. Lekin bu yangi qoidalar fermer daromadining barqarorligiga qanday ta’sir qilishini baholaydigan aniq usul hali yo‘q.

Mazkur tezisning maqsadi shu bo‘shliqni to‘ldirish va agrosug‘urtani rivojlantirish uchun iqtisodiy jihatdan asoslangan model taklif etishdan iboratdir

ASOSIY QISM. Sug‘urta faoliyatining umumiy qoidalari «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-730-son Qonunda belgilangan, agrar sohaga xos jihatlarni esa O‘RQ-

1056-son Qonun tartibga soladi [1]. Qonun mahsulot yetishtiruvchi, Qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi jamg‘armasi nomidan shartnoma tuzuvchi vositachi va mustaqil ekspertning huquq va majburiyatlarini ham belgilaydi. Mazkur qonun 2025-yil 17-iyuldan kuchga kirgan [1]. Shuningdek, 2025-yil 21-noyabrdagi PF-223-son Farmon [2] oldiga 2030-yilgacha qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmini bosqichma-bosqich 20 foizga oshirish, qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi jamg‘armasini tashkil etish, 2026-yildan boshlab imtiyozli kredit olgan ishlab chiqaruvchilarning hosil yo‘qotish xavfini oldindan sug‘urtalashni bosqichma-bosqich joriy qilish kabi bir necha vazifalarni qo’ygan.

Xususan, bu jarayonda bir ancha muammoli jarayonlar ham mavjud. Tadqiqotlarga asosan, davlat subsidiyasi bo‘lmagan davrda ekinlarning taxminan 30 foizi sug‘urtalangani, tariflar qo‘shni davlatlarnikidan yuqori ekani va tizimli qurg‘oqchilik yillarida qoplama yetishmagani qayd etilgan. Mualliflar yechim sifatida indeksli sug‘urtani tavsiya qilgan [6]. Bu ish eski davrga tegishli, ammo ko‘rsatilgan muammolar hozir ham dolzarbdir. Yuqori tarif va qurg‘oqchilikdagi qoplama bo‘shlig‘i sug‘urtani keng yoyishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Hozirgi qamrov bo‘yicha rasmiy raqamni Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligidan aniqlash kerak. Shuningdek, Nizomga ko‘ra subsidiya mukofotning 50 foizi bilan sug‘urta summasining 4 foizidan qaysi biri kichik bo‘lsa, shuncha bo‘ladi [3]. Tarif stavkasini r deb olsak, subsidiyaning mukofotdagi haqiqiy ulushi min(0,5; 0,04/r) ga teng. Hisob kitoblarga asosa, tarif 8 foizgacha bo‘lsa ulush 50 foizligicha qoladi. Tarif 10 foiz bo‘lsa 40 foizga, 12 foiz bo‘lsa taxminan 33 foizga tushishini ko’rishimizmumkin. Xavfi yuqori ekinlar va hududlarda tarif balandroq bo‘lishi tabiiy, ya’ni subsidiya eng kerak joyda fermerga tushadigan yuk oshadi. Bu bizning hisob-kitobimiz va uni real tariflar bilan sinash tadqiqotning keyingi bosqichi bo‘ladi. Yana bir muammo kichik xo‘jaliklarda zararni baholash narxidir. Mahsulotning 65 foizini ular yetishtiradi, lekin har bir dalani alohida ko‘rib chiqish xarajati sug‘urta mukofotiga nisbatan baland bo‘lib qoladi. Shu sababli sun’iy yo‘ldosh va ob-havo ma’lumotiga asoslangan indeksli yechimlar iqtisodiy jihatdan maqbulroq ko‘rinadi [5, 6]. PQ-354 sug‘urta hodisalarini baholashda kosmik monitoring va raqamli texnologiyalarni qo‘llashni nazarda tutgani bu yo‘nalishga huquqiy zamin yaratadi

[4]. Bundan tashqari, tizimli xavflar jamg‘arma uchun katta yuk. Qurg‘oqchilik yoki kuchli sovuq bir vaqtda ko‘plab xo‘jalikka zarar yetkazadi, shuning uchun qayta sug‘urta, xavf zonalari bo‘yicha tabaqalashgan tarif va profilaktika zaxirasi jamg‘arma barqarorligi uchun zarur. Beshinchidan, zararni baholash mustaqil ekspertlarga yuklangan [1], shu sababli ularning malakasi va mustaqilligi tovon to‘lashning tezligi va adolatliligini belgilaydi.

Muammolarni hisobga olgan holda quyida uch bosqichli model taklif qilamiz.

1. Birinchi bosqich - imtiyozli kredit olgan xo‘jaliklar uchun PF-223 doirasidagi asosiy ko‘p xavfli qoplama [2]. U kredit shartnomasi bilan bog‘lanadi.

2. Ikkinchi bosqich - ixtiyoriy kengaytirilgan qoplama. Unda subsidiyaning 4 foizlik yagona chegarasi o‘rniga hududiy xavf zonasiga qarab tabaqalashgan chegara qo‘llanadi, ya’ni xavfi yuqori zonalarda chegara balandroq bo‘ladi.

3. Uchinchi bosqich - qurg‘oqchilik va bahorgi sovuq kabi tizimli xavflar uchun indeksli sug‘urta. Uni dehqon xo‘jaliklariga kooperativlar orqali guruhli polis shaklida taklif qilish mumkin. PQ-354dagi 10–20 foizlik chegirmani esa xavf zonasi va ekin turiga qarab farqlash tavsiya etiladi [4].



Natijani o‘lchash uchun bizga ikkita ko‘rsatkich kerak bo’ladi. Birinchisi daromad barqarorligi koeffitsienti:

$$BK = 1 - V_1 / V_0.$$

Bunda V_0 - sug‘urtasiz holatda, V_1 - sug‘urta bilan bir gektar daromadining variatsiya koeffitsienti, ya’ni standart og‘ishning o‘rtacha qiymatga nisbati. Hisob kamida 5–7 yillik ma’lumotda olib borilishi lozim. BK noldan katta bo‘lsa, sug‘urta daromadni barqarorlashtirgan. Qiymat qancha yuqori bo‘lsa, ta’sir shuncha kuchli.

Ikkinchisi - subsidiya samaradorligi:

$$SE = \Delta D / S,$$

bunda ΔD - sug‘urtalangan xo‘jaliklarda daromad yo‘qotishining kamayishi, S - sarflangan subsidiya. Bu ko‘rsatkich PQ-354dagi «natijaviy subsidiya» g‘oyasiga mos, ya’ni davlat mablag‘i natijaga bog‘lanadi [4].

Tadqiqotda tarif oshgan sari subsidiyaning mukofotdagi ulushi kamayadi, bu

yuqoridagi formuladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib chiqadi. Sug‘urtalangan xo‘jaliklarda gektar daromadining variatsiya koeffitsienti sug‘urtalanmaganlarnikidan past, ya’ni BK noldan katta. Xavfi yuqori hududlarda subsidiya chegarasini tabaqalashtirish fermerning sug‘urtaga qiziqishini oshiradi. Birinchi gipoteza hisob-kitob bilan tasdiqlanishi haqidagi gipotezalarni tekshirishimizmumkin. qAmmo olgan ikkitasini real ma’lumotlar bilan sinab ko‘rish kerak.

Tadqiqotning ilmiy yangiligini 2025–2026-yillardagi yangi me’yoriy hujjatlar birgalikda tahlil qilinib, 4 foizlik chegara tarif darajasiga qarab haqiqiy subsidiya ulushini kamaytirishi mumkinligi hisob-kitob orqali ko‘rsatilishi, agrosug‘urtaning fermer daromadi barqarorligiga ta’sirini o‘lchash uchun BK koeffitsienti va subsidiya samaradorligi ko‘rsatkichi O‘zbekiston sharoitiga moslab taklif etilgnligi va kreditga bog‘langan asosiy qoplama, tabaqalashgan subsidiyali kengaytirilgan qoplama va indeksli sug‘urtani birlashtirgan uch bosqichli model ishlab chiqilganligi holatlarida ko’rishimizmumkin. Natijalardan Qishloq xo‘jaligi vazirligi, sug‘urta kompaniyalari va hududiy fermerlar kengashlari tarif siyosati hamda subsidiya parametrlarini asoslashda foydalanishi mumkin.

XULOSA. Xulosa sifatida ayta olamizki, O‘zbekistonda agrosug‘urtaning huquqiy asosi shakllantirishning vazifasi uni iqtisodiy jihatdan samarali va fermer uchun qulay qilishdan iboratdir. Buning uchun subsidiya chegarasini xavf zonalari bo‘yicha tabaqalashtirish, dehqon xo‘jaliklari va tizimli xavflar uchun indeksli mahsulotlarni kengaytirish, bonus-malus tizimini xavf darajasiga qarab farqlash hamda samaradorlikni daromad barqarorligi koeffitsienti kabi aniq ko‘rsatkichlar bilan baholash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi O‘RQ-1056-son Qonuni, 15.04.2025. Qonun haqida: Norma.uz, 18.04.2025. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/qishloq_hujaligi_tavakkalchiliklarini_sugurta_qilish_tugrisidagi_qonun_qabul_qilindi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish mexanizmini samarali tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-223-son Farmoni, 21.11.2025. https://advice.uz/oz/document/4424.

3. Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo‘jaliklariga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda sug‘urta mukofoti uchun to‘lov xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to‘g‘risida»gi nizomi, 02.07.2024. Spot.uz, 03.07.2024. https://www.spot.uz/oz/2024/07/03/insurance-subsidy/.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Agrar sohada moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-354-son qarori, 28.09.2026. O‘zA. https://www.uza.uz/uz/posts/agrar-sohada-moliyaviy-qollab-quvvatlash-samaradorligi-oshiriladi_915148.

5. BMT Taraqqiyot Dasturi O‘zbekiston. O‘zbekistonda kichik bog‘dorchilik bilan shug‘ullanuvchi fermerlar uchun davlat-xususiy sug‘urta dasturi ishga tushirildi, 03.04.2025. https://www.undp.org/uz/node/516166.

6. Muradullayev N., Bobojonov I., Mustafaqulov S. Current state and future prospects of crop insurance in Uzbekistan. AgEcon Search. https://ageconsearch.umn.edu/record/212559

